

## ALEKSANDR MAKEDONSKIYNING IJTIMOYIY - IQTISODIY HAYOTI

*Zaripova Oysuluv Ilyos qizi*

*Urganch Davlat universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti*

*Tarix (mintaqalar va yonalishlari bo'yicha) yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi*

**Annonatsiya:** Ushbu maqola Aleksandr Makedonskiyning hayoti haqida qichqacha ma'lumot beradi. Shuningdek Aleksandr haqidagi tadqiqotlarni qisqacha umumlashtirish uchun asos bo'ladi. Bu maqola Aleksandr Makedonskiyning tarixini umumlashtirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Makedoniya, Fillip II, Aleksandr, Doro III, sharqqa yurish, Bess, Aristotel, Gomer, Kvint Kursiy Ruf.

**Аннотация:** В данной статье представлено краткое изложение жизни Александра Македонского. Это также основа для краткого изложения исследований об Александре. Эта статья помогает обобщить историю Александра Великого.

**Ключевые слова:** Македония, Филипп II, Александр, Дарий III, поход на восток, Бесс, Аристотель, Гомер, Квинт Курсий Руф.

**Annotation:** This article provides a brief account of the life of Alexander the Great. It is also the basis for a brief summary of the research about Alexander. This article helps to summarize the history of Alexander the Great.

**Key words:** Macedon, Philip II, Alexander, Darius III, march to the east, Bess, Aristotle, Homer, Quintus Cursius Rufus.

Makedoniya yunon davlatlaridan ko'ra qoloq edi. U dengizga chiqadigan yo'lga ega emas edi, shu sababli dengiz savdosi va kolonyalar barpo etishga ishtirok eta olmadi. Makedoniya dehqonchilik mamlakati edi.

Pelopones urushlardan so'ng Makedoniya yunon sivilizatsiyasini tez o'zlashtira boshladi. Ayniqsa, yunon harbiy san'ati va harbiy texnikasi yaxshi o'zlashtiriladi. Aleksandr Makedoniya podshosi Filipp II va uning rafiqasi Olimpiadaning o'g'li. Aristoteldan ta'lim olgan, harbiy ishni ot-asidan o'rgangan. 336-yil Filipp II fitnachilar tomonidan o'ldirilgach, Makedoniya taxtiga o'tirgan. Aleksandr turli tarix va madaniyatga ega xalqlarning yetakchisi bo'lgan. Ba'zida mahalliy odatlar va dinini tushunmagani bois uning boshqaruvi omadsiz kechgan. Zamonaviy bosqichda Aleksandrning G'arb va Sharq o'rtasida ko'prik qurishga bo'lgan urinishlaridan ko'plab darslar chiqarish mumkin. Aleksandr hayotidagi eng muhim inson — bu uning otasi Filipp II Makedonskiydir. O'z podshohligi uchun qilgan ishlar nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, Filipp Aleksandr dan yaxshiroq shoh edi.

Aleksandr dan farqli o'laroq u o'limiga qadar oddiy makedon jangchisiligi qolgan. Filipp Aleksandr kabi ulkan imperiyani egallamagan, ammo shoh sifatida xalqning yaxshi yashashi uchun majburiyatlarini bajargan. Antik davrdagi ayrim tarixchilar uni Aleksandr dan yaxshiroq deya hisoblagan. Aleksandr bolaligidan yuqori intellekt sohibi edi. 6 yoki 7 yoshida lirada kuy chala olgan, katta yoshli insonlar bilan turli mavzularda suhbatlar qurgan. U butun grek adabiyotini o'qib chiqqan, Gomer eng sevimli yozuvchisi edi. Aleksandr 14-16 yoshga to'lganida Aristotel unga ustozlik qila boshlagan. Ammo baribir Aleksandr ga ko'p ta'sirni Aristotel emas, balki otasi Filipp o'tkazgan. 334-yil Aleksandr nihoyatda puxta tayyorgarlikdan keyin yunon shaharlari piyodalari bilan kuchaytirilgan makedon qo'shinlari Gellespont bo'g'ozidan o'tib Osiyo hududiga kirdilar. Urush e'lon qilish uchun bahona bo'lib, er.avv.V asr o'rtalarida yunon-fors urushlari davrida yunon ibodatxonalarining forslar tomonidan oyoq-osti qilishi bo'ldi. Bu mafkuraviy shiordan Iskandar yunon-makedon kuchlarini birlashtirishda foydalandi. Forslar bilan birinchi jang Kichik Osiyodagi Granik daryosi bo'yida bo'ladi. Bu jangda yunon makedonlar Eronning Kichik Osiyo satraplari va yunon yollamma askarlari qo'shinlari bilan jang qildilar. 333 yil oktyabrda (Gavgamela, Shimoli-Sharqiy Mesopotamiyada) bo'lgan janglarda fors qo'shinlari to'la mag'lubiyatga uchradi. Shundan so'ng Aleksandr uchun Ahamoniylar davlatining markazlariga yo'l ochilgan edi. Aleksandr dastavval Bobilni, so'ngra Suza, Persepol, Pasargada Shaharlarini egallab fors podsholarining xazinalarini qo'lga kiritdi. So'nggi Ahamoniy hukmdori Doro III avval Midiyaga, keyin esa Baqtriyada qochib ketdi. Kursiy Rufning ma'lumotlariga ko'ra Baqtriyaga Doro III ga qarshi fitna uyushtirilib u o'ldiriladi va fitnaga boshchilik qilgan Bess o'zini Ahamoniylar podshosi deb e'lon qiladi. Ammo, Bess Aleksandr ga harbiy qo'shnlarni qarshi qo'ya olmadi. Mil.avv. 329 yilning bahoriga qadar Aleksandr Ariya, Drang'iyona, Araxosiya kabi viloyatlarni egallab Oks-Amudaryo bo'ylariga chiqib keladi. Arrian va Kursiy ma'lumotlariga ko'ra bu paytda daryo juda sersuv bo'lib, to'lib oqardi. Amudaryodan kechuv joyini tadqiqotchilar Kelif atroflari, Chushqago'zar, Termez atroflari va Sho'rob deb hisoblaydilar. Nima bo'lganda ham, Aleksandr qo'shinlari qoplarga somon-xashak to'ldirib, ular orqali besh kun davomida Amudaryodan kechib o'tganligi haqida Yozma manbalarda ma'lumotlar saqlangan. Aleksandr qo'shinlari daryodan o'tgach Bessni ta'qib etib «Sug'd viloyati Navtakaga» yo'l oladilar (Avval Ptolomey Lag boshchiligidagi ilg'or qism, keyin asosiy kuchlar). Sug'd erlarida Spitaman boshliq mahalliy sarkardalar Aleksandrni to'xtatib qolish maqsadida Bessni asir olib unga topshiradilar. Ammo, Aleksandrda harbiy yurishlarni to'xtatish niyati yo'q edi. Navtakadan so'ng Yunon-makedon qo'shinlari Sug'diyonaning poytaxti Smarakandaga yurish qilib uni egallaydilar. Kursiy Ruf ma'lumotlariga ko'ra Yunon-makedonlar «Shaharda o'zlarining kichik gornizonlarini qoldirib, Yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib», Shimoli-Sharqqa tomon harakat qila

boshlaydilar. Jizzax va O'ratepa oralig'idagi tog'li hududlarda Yunon-makedon qo'shinlari qattiq talofat ko'radilar. Aleksandrning o'zi ham og'ir yarador bo'ladi. Shunga qaramasdan tog'li hudud aholisini qiyinchilik bilan mag'lub etgan Yunon-makedonlar dasht ko'chmanchilari saklar va sug'diylar o'rtasida chegara bo'lgan YaksartSirdaryoga tomon harakat qiladilar. Aleksandr dastlab Yaksart bo'yida o'z mavqeini mustahkamlashga qaror qilib, bu erdagi qo'zg'olonlarni bostirdi. Sug'diyonada mil.avv. 329 yil ko'zida Spitaman boshchiligidagi qo'zg'olonni (Maroqanda) bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligidagi qo'shinlarni jo'natdi. O'zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo, bu yurish muvafaqiyatsiz tugadi. Natijada mahalliy zodagonlarning deyarli barchasi Aleksandr hokimiyatini tan olib uning xizmatiga o'tib ketdilar. Mil.avv. 327 yilning oxirida Sug'diyonadagi qo'zg'olonning so'nggi o'choqlari ham bostirildi. Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari. Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari. Mil.avv. 325-324 yillarda makedonlar yaroq-aslahalari bilan qurollangan mahalliy aholi qo'shinlari Yunon-makedon armiyasi safiga jalb etiladi. Aleksandr mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan maqsadli siyosat olib borgan. Mil. avv 324 yilda Suza shahrida o'n mingta Yunon-makedon askarlari mahalliy ayollarga uylanadilar. Aleksandrning o'zi va sarkarda Gefestion Doro III ning qizlarini hamda sarkarda Salavka Spitamanning qizi Apamani xotinlikka oladilar. Aleksandr Makedonskiyning mil.avv.334-324 yillardagi harbiy yurishlari natijasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyo, Misr, Old va O'rta Osiyo, Hind daryosining Yuqori oqimigacha bo'lgan hududni qamrab oluvchi ulkan davlat toshkil topdi. Yunon-makedonlarning 330-327 yillardagi O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlariga qaramasdan o'sha davrda bu hududlarning ijtimoiysiyosiy va madaniy hayotida muhim o'zgarishlar bo'lib o'tdi. O'rta Osiyoga Ellin (Ellada, Bolqon yarim oroli) madaniyati kirib keldi. O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari yirik ellinistik davlatlar tarkibiga kirib, bu viloyatlarda yangi siyosiy-ma'muriy tartib joriy etildi. Bu tartib O'rta Osiyoda madaniy, iqtisodiy, tovar-pul munosabatlarining rivojiga turtki bo'ldi. Mahalliy va ellin madaniyatining uyg'unlashuvi bo'lib o'tdi. Aleksandr er.avv.323-yilda 32 yoshida Bobil shahrida vafot etdi. Uning davlati o'limidan keyin 3qismga: Suriya, Misr va Mesopatamiyaga bo'linib ketadi.

**Xulosalar:** Aleksandr Makedonskiy o'z davrining buyuk hukmdorlarida biri hisoblanadi. Yosh bo'lishiga qaramasdan o'z davriga yarasha buyuk davlat tuzgan hukmdor. Yana u o'z davriga yarasha mashhur bo'lgan olim Aristotelning ham shogirti hisoblanadi. Uning harbiy yushilari mahhaliy aholiga sezilarli darajada ta'sir qildi. Masalan uning yurishidan so'ng O'rta Osiyoga ellinizm kirib keldi. Bu esa o'z navbatida mahalliy aholi o'rtasidagi madaniyatga sezilarli darajada hiisa qo'shidi. Bazi olimlarning fikricha Aleksandr tuzgan davlat bir qarashda Ahamoniylar imperiyasiga ham o'xshab ketardi. Shu bilan birga Aleksandr o'z navbatida ham sarkarda, ham davlat

arbobi, ham mana shunday imperiyaning ham podshosi bo'lgan. Aleksandr Makedonskiyning dunyo tarixida tutgan o'rni beqiyos desak mubolag'a bo'lmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. R. Rajapov - "Qadimgi Dunyo tarixi"( Qadimgi Sharq ) Toshkent- ( Fan va Texnologiya) 2009, 286 - 290 betlar
2. A. Kabirov - " Qadimgi Sharq tarixi " Toshkent ( Tafakkur )2016, 276 -280 betlar.
3. A.Sagdullayev - "O'zbekiston tarix" Toshkent- ( Donishmand ) 2021, 200-204 betlar.